

Farzandim qanday qilib baholanadi?

Oilalar, agar farzandlari ingliz tilini bilmasa, ularning bilimlari yoki ko'nikmalarini baholash mumkin emas deb xavotirga tushishlari mumkin. Bu muhim muammo. Nyu-York shtatida bolalar bog'chasi dasturlari bolalarni baholashga yordam berish uchun multilingval resurslarga sarmoyalaydi. Ushbu resurslarga tarjima qilingan baholashlar va tarjima xizmatlari kiradi.

Bolalar bog'chasi o'qituvchilari bolalarni sinf kuzatuvi orqali ham baholay oladilar. Ular bolalarning hattiharakatlari va materiallardan foydalanishlari orqali nimani o'zlashtirganliklarini va nimani o'rganayotganlarini ko'rishlari mumkin. O'qituvchiga bolalar uyda nimalarni bajara olishlarini aytib berish ham o'qituvchiga ularni yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Faqrzandim chalkashib qolmaydimi?

Yo'q. bilingval va multilingval insonlar, hattoki bolalar ham, o'zlarini ifoda etish uchun bir nechta tillarda so'zlardan foydalana oladilar. Ba'zan ular gaplashayotganda tillarni birlashtiradilar, ammo bu chalkashlik belgisi emas. Bolani tillarni ajratishga majburlash shart emas. Buning o'rniغا, uyda kattalar so'z boyligini va boshqa til ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish uchun bola bilan ona tilidan foydalanishlari mumkin. Bola maktabda ham tillarni birlashtiradi, o'qituvchi bolaga ingliz tilini o'rganayotganda ona tilidan foydalanishga ham imkon beradi.

Farzandingiz uya loyihalarni yoki topshiriqlarni birgalikda bajarishga olib kelganda, ularni o'zingizning tilingizdan foydalangan holda bajarish foydalidir. Shu tarzda, farzandingiz ingliz tilida biladigan so'zlarni ishlatish bilan cheklanib qolishi shart emas. Uyda o'z tilingizdan foydalab, maktabda ingliz tilida o'rgangan narsalarini mustahkamlashingiz mumkin.

Qanday yordam bera olaman?

O'zingizning urf-odatlaringizni saqlab, farzandingiz bilan oilangiz tilini ishlatishda davom eting. Maktabda o'rganayotgan narsalari haqida farzandingiz bilan suhbatlashish kabi o'z ona tilingizdan foydalanish imkoniyatlarini toping. Farzandingiz bilan qiladigan barcha narsalarni - hikoyalar aytib berish, qo'shiq aytish, sanash, o'qish - barchasi o'z tilingizda davom ettiring.

Farzandingiz maktabda o'z ona tilini eshitishi uchun o'qituvchiga maktabda ona tilingizni ishlatishda yordam berish imkoniyatlarni qidirib toping.

Esingizda bo'lisin, bir nechta tillarni bilish juda zo'r. Bolalar o'sishi va o'rganishi davomida sinfni barcha biladigan til ko'nikmalaridan foydalanishi mumkin bo'lgan xushlovchi multilingval joyga aylantirish uchun maktab sizning ishtirokingizga muhtoj.

Insert School PK
Program
Information Here



**Shakllanayotgan
multilingval o`quvchilar
oilalari Nyu-York
shtatidagi bolalar
bog`chagachasiga xush
kelibsiz**



XUSH KELIBSIZ!

Bolalar bog'chasiga kirish bolalar uchun hayajonli vaqt. Bolalar bog'chasi sinfida farzandlaringiz ta'limalish safarini boshlashadi. Ular yangi do'stlar orttiradi, hikoyalari eshitadi, o'ynashadi, qo'shiq aytadi, raqsga tushadi va o'rganadilar. Ushbu tadbirlarning barchasi bolalar muhim akademik va til ko'nikmalarini o'rganishlari va shakllantirishlarining tarkibiy qismidir. Farzandlaringizning bilim olishiga yordam berish uchun siz, o'qituvchilar va boshqa oila a'zolari birgalikda ishлаshingiz mumkin. Siz uchun mакtab va uy o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish muhimdir. Jamoa sifatida bolalarning o'rganishini qo'llab-quvvatlashimiz mumkin. Maktabingiz jamoasining bir qismi bo'lish uchun oilangiz bilan bu aloqani o'rnatishdan juda xursandmiz.

Bolalar bog'chasida biz oilalarning farzandlarini sevishlari va qo'llab-quvvatlashlarini hurmat qilamiz. Biz farzandlaringizga xizmat ko`rsatish uchun birgalikda ishлаshni xohlaymiz. Buning uchun biz sizning oilangiz, urf-odatlaringiz, madaniyatingiz va gapiradigan tilingiz haqida bilmоqchimiz.

BILINGVAL VA MULTILINGVAL BOLALAR

Bir nechta tilni bilish afzallikdir. Nyu-Yorkdagi ko'plab oilalar uyda bir nechta tilida gaplashadilar. Ba'zan yosh bolalar bog'chaga borishni boshlaganda o'z tillarida gapiradilar, ingliz tilida esa juda oz gapiradilar. Biz yosh bolalaringizni bir nechta tillarni o'rganishni davom ettirishga va ular katta bo'lganida bilingval yoki multilingval bo'lishga undaymiz.

Bilingval yoki multilingval farzandlaringizga ingliz tilini o'rganayotganda moslashish davri kerak bo'lishi mumkin. So'z boyligini rivojlantirish va o'zlarini bir nechta tilda ifoda etishlari uchun ularga vaqt kerak bo'ladi. Farzandlaringiz ingliz tilini o'rganayotganda muhim ko'nikma va tushunchalarni o'rganishda davom etadilar. Ushbu moslashish davri qo'rqinchli bo'lishi va qator savollarni tug'dirishi mumkin. Sizga yordam berish uchun biz ushbu broshurada bir nechta ko'p uchraydigan savollarga javob berdik.



Uyda inglizcha gapirishimiz lozimmi?

Uyingizda ishlataidanigil til farzandingiz uchun xazina. Farzandingiz ingliz tilida tobora ko'proq so'zlarni o'rganayotgan bo'lsa ham, ular bilan ona tilingizda gaplashish, o'qish va muloqotni davom ettirish yaxshi. Bu ularga bilingval yoki multilingval bo'lishga yordam beradi va bu ularning til ko'nikmalarini o'sishiga va o'rganishlarini o'stirishga yordam beradi. Bolalarning mакtabda bajaradigan barcha tadbirlari va loyihalarinini uyda o'z tilingizda davom ettirish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, oilada gapiriladigan tilidan foydalanish ingliz tilida so'plash, o'qish yoki yozishni o'rganishga yoki yangi tilni o'rganishga xalaqit bermaydi. Olilada gapiriladigan tildan foydalanish o'qish va yozishni o'rganishga yordam beradi. Bilingval yoki multilingval bo'lish ko'p afzallikkarga ega va miya uchun foydali.

Ba'zan oilalar o'z farzandlarini ingliz tiliga e'tiborini qaratishlari yaxshiroq deb o'ylagani uchun ona tilini qurbon qilishadi. Farzandingiz ingliz tilini ona tilini yo'qotmasdan o'rganishi mumkin. Bunda tillardan bittasini tanlash shart emas. Ona tilingiz sizning merosingiz va o'zligingizning qimmatli bo'lagidir. Bilingval yoki multiligval bo'lish farzandlaringizning hayotini boyitadi. Merosingiz tilidan foydalana olish farzandingiz va oilangiz uchun boylikdir.

Bilingval oilalarda ba'zan bolalar bir-birlari bilan ingliz tilida, lekin kattalar bilan ona tilida gaplashadilar. Bolalar atroflaridagi insonlar gapiradigan tillardan xabardonlar. Agar ular tilni bilsalar, uni qachon ishlatishini tanlaydilar. Oilada gapiradigan tilingiz farzandlaringiz uchun doimo muhim bo'lib qoladi. Uyda o'z tilingizdan foydalanishda davom etarkansiz bilingvallik yoki multilingvalligizgizni saqlab qola olasiz.

